

# Yashil

# IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 214 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

## **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya**, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi**, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
**Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TDIUprofessor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d., TSUE professori  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Musayeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori  
**Cham Tat Huei**, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi  
**Djudi Smetana**, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
**Krissi Lyuis**, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
**Ali Kopak (Али Кўнак)**, i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya  
**Glazova Marina Viktorovna**, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti  
**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

### Editorial board:

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyeovich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
<b>Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna</b>	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash .....	20
<b>Shakarov Zafar Gafforovich</b>	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему .....	24
<b>С.С. Исмаилов</b>	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili .....	32
<b>Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich</b>	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
<b>Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li</b>	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari .....	41
<b>Sh.B. Donayev</b>	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir .....	45
<b>Xursandov Komiljon Maxmatkulovich</b>	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....	49
<b>Idrisov Alisher Otajonovich</b>	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlari.....	53
<b>Sultanov Maxmud Axmedovich</b>	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
<b>Amirdjanova Sitara Sunnat kizi</b>	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики.....	61
<b>Вохидова Мехри Хасановна</b>	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран.....	69
<b>Буранова Лола Вахобовна</b>	
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
<b>Babamatov Tolib Hakimovich</b>	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari .....	83
<b>S.A.Karabayev</b>	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari .....	90
<b>Yusupov Aziz Shuxratovich</b>	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi .....	95
<b>Gulbayeva Feruza Islamovna</b>	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
<b>Sherov Alisher Bakberganovich</b>	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili .....	107
<b>Sayidova Maftuna Hamroqul qizi</b>	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish .....	111
<b>Umarova Malika Baxtiyarovna</b>	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций.....	116
<b>Умида Юлдашева</b>	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
<b>Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович</b>	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
<b>Ismoilov Sherzod Dilshodovich</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
<b>Ziyadullayev G'ayrat Umiddulla o'g'li</b>	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari .....	138
<b>Sharipov Narzullo G'ulomovich</b>	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
<b>Shadieva Madina Djaloliddin qizi</b>	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
<b>Jumanazarova Z.K.</b>	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri .....	154
<b>Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich</b>	
Oliygozlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari .....	158
<b>Adizov Sanjar Rashidovich</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish .....	165
<b>Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi</b>	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
<b>Касимова Зилола Гуламиддиновна</b>	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirish .....	182
<b>Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li</b>	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане .....	186
<b>Шахзод Сайдуллаев</b>	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish .....	192
<b>Ahmedov Komron Muhammadaliyevich</b>	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	196
<b>Quyjanov Xurshid Abdullayevich</b>	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari .....	200
<b>Bakayev Xurshid Maxmudovich</b>	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati .....	206
<b>Normurzayev Umid Xolmurzayevich</b>	



# YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR BO'YICHA HUDUDLARARO DAVLAT SOLIQ INSPEKSIYASI O'RNI VA AHAMIYATI

ORCID: 0009-0001-0130-8766

**Normurzayev Umid Xolmurzayevich**

i.f.d., O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha inspeksiya soliq bosh inspektori

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mamlakatda soliq sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni takomillashtirishda hududlararo soliq inspeksiyasini o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston soliq tizimida hududlararo soliq inspeksiyasi amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq siyosati, soliq tushumlari, tahlila-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, hududlararo soliq inspeksiyasi, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

**Abstract:** This article describes the role and importance of the interregional tax inspectorate in improving large-scale reforms aimed at creating favorable conditions for doing business in the tax sphere in the country and further strengthening the confidence of the business community. At the same time, some important reforms implemented by the interregional tax inspectorate in the tax system of Uzbekistan were studied, and scientific and practical conclusions and proposals were developed based on foreign experience and its application in our country.

**Key words:** tax policy, tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, interregional tax inspectorate, analysis, optimization, tax benefits, tax rate.

**Аннотация:** В данной статье описаны роль и значение межрегиональной налоговой инспекции в совершенствовании масштабных реформ, направленных на создание благоприятных условий для ведения предпринимательской деятельности в налоговых сферах в стране, дальнейшее укрепление доверия деловых кругов. При этом были изучены некоторые важные реформы, реализуемые межрегиональной налоговой инспекцией в налоговой системе Узбекистана, а также разработаны научно-практические выводы и предложения на основе зарубежного опыта и его применения в нашей стране.

**Ключевые слова:** налоговая политика, налоговые поступления, анализ, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, межрегиональная налоговая инспекция, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

## KIRISH

So'nggi yillarda ko'plab mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston soliq tizimida muhim islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar ko'pincha iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, investitsiyalarni rag'batlantiradigan va davlat funksiyalari uchun yetarli daromad yig'ilishini ta'minlaydigan yanada samarali, shaffof va adolatli soliq tuzilmasini yaratish zarurati bilan bog'liq. Soliq tizimidagi islohotlar mamlakatning iqtisodiy manzarasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bundan tashqari, jahon amaliyotida yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, yirik soliq to'lovchilar faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini aniqlash, yirik soliq to'lovchilarga audit va soliq nazoratini qo'llab-quvvatlash majburiyatini to'liq bajarish, nazorat funksiyalarini tarmoqlar bo'yicha tuzilmalash, qoidalarga birgalikda rioya etish tamoyilini amalga oshirish, soliq to'lashdan bo'yin tovlashni to'xtatishning samarali mexanizmini ishlab chiqish masalalarining dolzarbligi ularning yetarlicha nazariy va normativ jihatdan o'rganilmaganligi va zamonaviy iqtisodiy sharoitda yuqori amaliy ahamiyati bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

A.Fedorov. [1] fikricha, "ma'muriy yukni kamaytiradigan va yirik soliq to'lovchilarning investitsiya faolligini rag'batlantiradigan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar taklif etgan, amaldagi soliq imtiyozlarini sezilarli darajada kengaytiradigan va to'ldiradigan hamda o'z investitsiya manbalarini



ko'paytiradigan yirik soliq to'lovchilarning investitsiya faoliyatini soliq orqali rag'batlantirish usullari va uslublarini ishlab chiqqan, ularning samaradorligini baholagan"

T.Kamalnev [2] yirik soliq to'lovchilarning faoliyatini soliqqa tortish amaliyotini bevosita gaz tarmog'i korxonalarida misolida tahlil qilgan bo'lib, yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatchiligi natijalariga baho bergan, mintaqalararo soliq xizmati organlarining nazorat faoliyati ham miqdoriy ham sifat ko'rsatkichlari asosida tahlil qilgan".

V.G.Bayborodina [3] "soliq islohotlari – soliq tizimini keng ko'lamli qayta qurish va uni boshqarish mexanizmini o'zgartirish asosida soliq munosabatlarining cheklangan yoki tubdan o'zgarishi sifatida" ta'riflaydi.

I.A.Mayburov [4] "soliq islohoti soliq tizimini tubdan o'zgartirishni davlat soliq siyosatining yangi mazmuniga moslashtirish" deb ta'kidlaydi.

O.Sitnikovaning fikricha, [5] "konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchilar guruhiga kiritishda aktivlarini tan olish yoki maxsus qayta baholash zarur, guruhga kirishdan oldin korxonaning zararlarini o'tkazish tartibi ishlab chiqilishi lozim, konsolidatsiyalashgan soliq to'lovchining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining bir xil qiymatga ega bo'lgan subyekt sifatida xalqaro e'tirof etilishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim".

Yu.Darkina [6] yirik soliq to'lovchilarning xususiyatlari sifatida to'xtalib, "yirik soliq to'lovchilarga quyidagi xususiyatlar xosdir: katta pul oqimi, keng ko'lamli hujjatlar aylanmasi, soddalashtirilgan tizim bo'yicha soliqqa tortiladigan turli tarkibiy bo'linmalarning integratsiyasidan foydalanish, mamlakat ichida ham, chet elda ham turli firmalar bilan hamkorlik mavjudligidir".

A.Yunak [7] yirik soliq to'lovchilar tushunchasi mohiyatini ochib berishga harakat qilib, unga quyidagicha ta'rif beradi: "yirik soliq to'lovchilar - bu qonuniy belgilangan mezonlarga: subyektga taalluqli bo'lgan amalga oshirilayotgan faoliyat turi, iqtisodiyotning tarmog'i, faoliyatning moliyaviy ko'rsatkichlari, shaxslar guruhlaridagi ishtiroki, band bo'lgan xodimlarning soni va boshqa ma'lumotlarga javob beradigan soliq to'lovchilarning yuridik va jismoniy shaxslar, rezidentlari va norezidentlari, qonuniy ravishda alohida shaxslarning maxsus toifasidir

N.M.Dementeva [8] soliq siyosatini davlat iqtisodiy siyosatining in'ikosi ekanligini, u mustaqil ahamiyatga egaligi va soliqning ilmiy nazariyasiga asoslanishi lozimgini ta'kidlaydi. "Amalga oshirilayotgan soliq siyosatining natijalari ko'p jihatdan davlat o'z iqtisodiy siyosatiga qanday tuzatishlar kiritishga majbur ekanligini, soliq tizimini qanday qurish kerakligini belgilaydi".

Karp M.V [9] Soliq siyosati davlatning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi, soliq tizimini boshqarish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI


O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 320-son qaroriga muvofiq Yuridik shaxslarni yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritishning mezonlarini belgilash to'g'risidagi nizomi tasdiqlandi.

Jahondagi rivojlanayotgan va o'tish davrini kechirayotgan mamlakatlar tajribasi yirik soliq to'lovchilarning qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish ma'lum xavflarni bartaraf etib, soliq qonunchiligini oshirish va soliq ma'murchiligining yanada samarali bo'lishini ta'minlashini ko'rsatmoqda. "Pandemiya munosabati bilan ko'plab mamlakatlar soliq yig'ish eroziyasini boshdan kechirmoqda, bu iqtisodiy faoliyatning pasayishi va soliqqa rioya qilishning mumkin bo'lgan yomonlashuvini aks ettiradi. Aksariyat soliq ma'muriyatlari soliq to'lovchilar bilan deyarli yuzma-yuz aloqa o'rnatmay, masofadan ishlashga o'tishga majbur bo'ldi". Bugungi kunda yirik soliq to'lovchi majburiyatlarini baholash, soliq ma'muriyatchiligining asosiy funksiyalariga yangi axborotlashtirilgan tizimlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Ortodoks nazariyalarga ko'ra tadbirkorlik subyektlarning mazmun mohiyati, ularning xususiyatlari hamda bozordagi o'rnini aniqlash maqsadida ularning ma'lum bir mezonlarga ko'ra guruhlanish amalga oshiriladi. Bunday guruhlanishlar tarkibiga kichik korxonalar, mikrofirmalar, yakka tadbirkorlik subyektlari, o'rta korxonalar, yirik korxonalar, transmilliy kompaniyalar, tabiiy monopoliya korxonalar va shu kabilar. Korxonalarni bunday guruhlarga ajratilishi yoki nomlanishi ularning ko'lami asos qilib olinadi. Ko'lamiylik mezoni esa turli davlatlarda turlicha va ularni davlat tomonidan boshqarilishi ham har xil yondashuvlar mavjud bo'ladi. Jahon amaliyotida iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi yoki daromad manbaiga ega bo'lganlarga jamiyat manfaatlari uchun soliq majburiyatlari yuklatiladi. Bu kabilar zimmasiga soliq majburiyatlarining yuklatilishi esa ularga oid soliq siyosatining o'ziga xos yo'nalishlari ham yuzaga keladi.

Soliqlarni undirish jarayoni ko'plab munosabatlarni keltirib chiqaradi. Soliqlar iqtisodiy munosabatlardan tashqari sotsial, psixologik, huquqiy, tashqi iqtisodiy va hatto siyosiy munosabatlarni qamrab oladi. Soliqlar bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar, avvalo, soliq to'lovchilar va budjet tizimiga kiruvchi budjetlar o'rtasida soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bilan bog'liq o'zaro munosabatlarni qamrab oladi. Bu jarayonda esa

ikki tomon yuzaga keladi. Biri budget manfaatlarini ko'zlagan holda uni undirish bilan bevosita shug'ullanuvchi hamda ushbu jarayonda xizmat qiluvchi davlatning vakolatli organlari, boshqasi esa soliq to'lovchilar sifatida ishtirok etadi.



1- rasm. Soliq to'lovchilarning guruhlanishi


Keltirilgan rasmdan ko'rish mumkinki, soliq to'lovchilar soliq munosabatlari keltirib chiqaruvchi muhim zvenosi hisoblanadi. Soliq to'lovchi tushunchasi esa, soliq majburiyati bilan uzviy bog'lanadi. Soliq to'lovchilarni guruhlashda yuridik va jismoniy shaxslarga ajratilishi bilan bir qatorda soliq to'lovchilarning tashkiliy-huquqiy shakliga ham bog'liq bo'ladi. Soliq to'lovchilar huquqiy maqomi jihatidan yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar, notijorat tashkilotlari, doimiy muassasa, yakka tartibdagi tadbirkorlar, rezident va norezidentlarga ajratiladi. Soliqqa tortish maqsadida yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 32-moddasi va fuqarolik Kodeksining 39-moddasiga ko'ra o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Shuningdek, yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak. Shu bilan birgalikda yuridik shaxslar jumlasiga chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan chet el tashkiloti va O'zbekiston Respublikasining, chet davlatning qonun hujjatlariga yoki xalqaro shartnomaga muvofiq tashkil etilgan xalqaro tashkilotlari ham kiritiladi. Notijorat tashkilotlari deganda foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar tushunilib, ularga budget tashkilotlari, shu jumladan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tashkilotlar kiradi.

Shu bilan birgalikda soliq to'lovchilar guruhlaganda ularning yuzaga kelishi, soliq to'lashni amalga oshirishi hamda soliq to'lovchilar bo'yicha soliq potensialni aniqlash maqsadida real va potensial soliq to'lovchilarga, soliq to'lovchilarning soliqlar to'lash holati yuzasidan ro'yxatdan o'tgan soliq to'lovchilar, faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchilar, faoliyatini to'xtatgan soliq to'lovchilar hamda soliq majburiyatlari tugagan(boshlangan) soliq




to'lovchilarga ajratiladi. Real soliq to'lovchilar bu amalda faoliyat ko'rsatib turgan va soliq to'lash majburiyatini amalda bajarayotgan soliq to'lovchilar tushunilsa, potensial soliq to'lovchilar esa yaqin kelajakda soliq to'lovchilar sifatida yuzaga kelishi kutilayotgan soliq to'lovchilar nazarda tutiladi.



2- rasm. O'zbekiston soliq tizimida soliq to'lovchilarning guruhlanishi

2-rasmda keltirilganidek, O'zbekiston soliq tizimida soliq to'lovchilar maqomiga ega bo'lgan subyektlarni soliq to'lash tartibiga, tashkiliy tuzilmasiga, soliq to'lash maqomiga, soliqqa tortilishiga, soliq to'lash imkoniyatiga ko'ra guruhlash mumkin. Bunday guruhlanish soliq to'lovchilarni soliqqa tortishda, ularga nisbatan soliqlarning adolatlilik tamoyilini qo'llashda, budjetga soliq tushumlarini chamalashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Soliq to'lovchilarni ma'lum bir mezonlarga ajratish soliq to'lovchilarga nisbatan soliq ma'murchiligini tashkil etish yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi. Masalan olaylik 1997-yildan boshlab kichik biznes subyektlarini milliy iqtisodiyotdagi rolini oshirish maqsadida respublikamizda ularni soliqqa tortishning alohida tartibi, ya'ni soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi qo'llanib kelindi. Unga ko'ra bu kabi korxonalarga soliq imtiyozlari va preferensiyalar qo'llash maqsadida bir necha soliqlar o'rniga bitta yagona soliq to'lash imkoniyati va soddalashtirilgan tartibni yoki umumbelgilangan tartibni qo'llashning ixtiyoriyligi berilgan edi.



3- rasm. Yirik soliq to'lovchi korxonalarining iqtisodiy-ijtimoiy maqomi<sup>1</sup>.

3-rasmda keltirilganidek, yirik soliq to'lovchi korxonalarining iqtisodiy-ijtimoiy maqomini belgilovchi bir qator elementlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Yirik soliq to'lovchilarga xos xususiyatlardan biri ularning aksariyati yirik va tabiiy monopoli mavqega ega bo'lgan korxonalar hisoblanadi. Ularning yillik mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmi boshqa soliq to'lovchilarga anchayin katta miqdorni tashkil qiladi. Bu kabi korxonalar milliy iqtisodiyotda yalpi mahsulotni yaratishda, turli darajadagi budjetlarning daromadlarini shakllanishida, aholini band qilishda katta ham iqtisodiy ham ijtimoiy maqomga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 169-moddasi beshinchi qismi<sup>2</sup>ga asosan yuridik shaxs, agar uning oldingi yil uchun daromadlari yillik moliyaviy hisobot ma'lumotlariga ko'ra kamida besh milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, soliq monitoringini o'tkazish to'g'risidagi ariza bilan soliq organiga murojaat qilishga haqli ekanligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 110-moddasi yettinchi qismiga ko'ra, soliq monitoringini o'tkazish jarayonida soliq organining soliq to'lovchiga yuborilgan asosli fikrini bajarishi natijasida soliq to'lovchida hosil bo'lgan soliq bo'yicha qarz summasiga penyalari hisoblanmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 136-moddasi birinchi qismiga asosan, soliq organlari soliq nazoratini soliq monitoringi shaklida ham amalga oshirishi mumkinligi qayd etilgan. Soliq kodeksining 138-moddasi o'n to'qqizinchi qismiga asosan, agar soliq (hisobot) davri uchun soliq monitoringi o'tkazilayotgan bo'lsa, bunday davr uchun kameral soliq tekshiruvi o'tkazilmaydi. Mazkur qoida soliq monitoringi muddatidan oldin tugatilganda qo'llanilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 146-moddasi o'n birinchi qismi<sup>3</sup>ga ko'ra, soliq tekshiruvi va soliq nazoratining boshqa tadbirlari jarayonida soliq organlari tekshirilayotgan shaxsning kameral yoki sayyor soliq tekshiruvlari o'tkazilganda soliq organlariga ilgari taqdim etilgan hujjatlarni, shuningdek soliq monitoringini o'tkazish jarayonida tasdiqlangan ko'chirma nusxalar shaklida taqdim etilgan hujjatlarni tekshirilayotgan shaxsdan talab qilib olishga haqli emas. Agar hujjatlar ilgari soliq organiga asl nusxalar tarzida taqdim etilib, keyinchalik tekshirilayotgan shaxsga qaytarilgan bo'lsa, shuningdek soliq organiga taqdim etilib, bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holatlari oqibatida yo'qotilgan taqdirda, hujjatlar tekshirilayotgan shaxsdan qayta talab qilib olinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 215-moddasi birinchi qismi<sup>4</sup>ga ko'ra, soliq monitoringini o'tkazish davrida soliq organining soliq to'lovchiga (yig'im to'lovchiga, soliq agentiga) yuborilgan asoslantirilgan

1 Muallif tomonidan tuzilgan.

2 [lex.uz/docs/4674902](http://lex.uz/docs/4674902)

3 [lex.uz/docs/4674902](http://lex.uz/docs/4674902)

4 [lex.uz/docs/4674902](http://lex.uz/docs/4674902)



fikri soliq to'lovchi (yig'im to'lovchi, soliq agenti) tomonidan bajarilganda shaxsning soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlikdagi aybini istisno qiladigan holatlar deb e'tirof etiladi (1-jadval).

1-jadval. Soliq monitoringi o'tkazish uchun taklif etilayotgan nomzodlar to'g'risida ma'lumot (mlrd.so'm)<sup>5</sup>.

Korxonona nomi	Izoh (tanlab olinishi sababi)
«O'ZBEKNEFTGAZ» AJ	Jamiyatning 2024-yil 6 oylikdagi tushumlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 33 foizga kamaygan. Jamiyat tarkibiga kiruvchi zavodlar tugallanmagan balans tayyorlaganligi sababli mahsulot tannarxini nazorat qilish uchun ma'lumotlar zarur.
«UZGASTRAD» AJ	Jamiyat import qilingan gaz hajmini vaqtinchalik BYUD bilan kirim qilinganligi sababli, soliq organida gaz kirim chiqimini nazorat qilish uchun buxgalteriya birlamchi hujjatlarini o'rganish zarur.
«HUDUDGAZTA`MINOT» AJ	Aholiga yetkazib berilgan gaz hajmini tahlil etish maqsadida jamiyatning gaz hisoblagichi hamda buxgalteriya ma'lumotlariga ulanish zarur.
«ISSIQLIK ELEKTR STANSIYALARI» AJ	Jamiyat tushumlari o'tgan davrga nisbatan 66 foizga kamaygan. Xarajatlar davromadlarga nisbatan oshib ketib korxonaga zarar bilan faoliyat yuritayпти.
«HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI» AJ	Korxonaning tushumlari o'tgan yilga nisbatan 66 foizga kamaygan. Elektr hisoblagichlar ma'lumotlarini avtomatik rejimda olinmaganligi sababli, jamiyat yo'qotishlarini nazorat qilish imkoni bo'lmayпти. Shuningdek, birlashish davrida pul bilan to'lanmagan gudvil xarajatlarini yaratilgan. Xarajatlar asosligini fakatgina buxgalteriya hujjatlari va o'tkazmalari orqali bilish mumkin.
«O'ZENERGOSOTISH» AKSIYADORLIK JAMIYATI	Elektr energiyasini markazlashgan tartibda xarid qilish va sotish funksiyasini 2024-yil 1-iyuldan boshlab ushbu korxonaga berildi. Shu sababli elektr energisi realizatsiyasidan undiriladigan soliqlar tushumini nazorat qilish uchun jamiyat buxgalteriyasi birlamchi hujjatlarini o'rganish zaruriyati mavjud.
«UZAUTO MOTORS» AJ	Jamiyat tomonidan 2023-yilda 12% qo'shimcha qiymat yaratilgan, shuningdek jamiyat sof foydasining 25 foizi miqdoridagi mablag'lar royalti uchun chet el kompaniyalariga chiqarilmoqda. Ushbu kompaniyalar bilan aloqasini chuqurroq tahlil qilish maqsadida buxgalteriya birlamchi hujjatlariga ehtiyoj mavjud.
«O'ZBEKTELEKOM» AJ	Jamiyat aloqa sohasida eng yirik operator bo'lganligi sababli sohaning xususiyatlarini chuqurroq tahlili maqsadida tanlab olindi.
«TEMIRYO'LINFRATUZILMA» AJ	Jamiyat temir yo'l mintaqaviy temir yo'l uzellarini birlashtirish asosida tashkil etilgan. Temir yo'l transportining asosiy xarajatlari ushbu korxonaga buxgalteriyasida aks ettirilganligi sababli tanlab olindi.
«UZBEKISTAN AIRWAYS» AJ	Jamiyat tushumlari o'tgan davrga nisbatan 66 foizga kamaygan. Jamiyatning yoqilg'i xarajatlari o'tgan yillarga nisbatan oshgan. Yoqilg'i to'ldirish mamlakat chegarasidan tashqarida ham oshirilganligi sababli, xarajatlar asosligini tekshirish uchun buxgalteriya hujjatlarini o'rganish zaruriyati mavjud.
«NAVOIYAZOT» AJ	Jamiyatning QQS bo'yicha to'lovlari o'tgan yilga nisbatan 115,8 mlrd.so'mga kamayib ketgan. Jamiyat tomonidan sarflanadigan material xomashyo sarfi oshganligi sababli, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini birlamchi hujjatlar bilan o'rganishga ehtiyoj mavjud.
«NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJ	Jamiyat tomonidan to'lanadigan soliqlar jami tushumlarda 24 foizni tashkil etganligi sababli soliq summasi ham soliq bazasining 50 foizini tashkil etganligi sababli, jamiyatning buxgalteriyasida aks ettirilgan xarajatlarini doimiy o'rganib borish zarur.
«OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJ	Jamiyat tomonidan to'lanadigan soliqlar jami tushumlarda 8 foizni tashkil etganligi sababli soliq summasi ham soliq bazasining 50 foizini tashkil etganligi sababli, jamiyatning buxgalteriyasida aks ettirilgan xarajatlarini doimiy o'rganib borish zarur.
«NAVOIYURAN» DK	Korxonaning uran eksporti hukumat qaroriga asosan vaqtinchalik BYUD bilan rasmiylashtirilgan holda amalga oshiriladi. Shu sababli haqiqatda realizatsiya hajmini doimiy nazorat qilib borish uchun buxgalteriya birlamchi hujjatlari va o'tkazmalari zarur.

5 Муаллиф томонидан тузилган.



Hududlararo soliq inspeksiyasi ma'murchiligidagi 1 332 ta yirik soliq to'lovchilar 1 iyuldan hududlarga o'tkazildi. Shundan kelib chiqib, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo soliq inspeksiyasiga 2024-yilning II yarim yilligiga 71,5 trln so'm prognoz ko'rsatkichi va 24 trln so'mlik qo'shimcha tushumlar yoki jami 95,5 trln so'm reja belgilandi. Yirik 947 ta korxonada II yarim yillikda 95,5 trln so'mlik tushumlarni oyma-oy ta'minlash grafigi ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlandi.

Grafik asosida manzilli ish olib borilib, joriy yil iyul oyida yirik soliq to'lovchilardan 9,9 trln so'm (iyun – 8,9 trln so'm) miqdorida tushumlar ta'minlanib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 baravardan ortiq o'sish ta'minlandi (2023-yil iyul – 7,1 trln so'm). Yirik soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish inspeksiyasi tarkibiy tuzilmasi qayta ko'rib chiqilib, yirik korxonalarda tannarxning shakllanishi hamda xarajatlarni tahlil qilish bilan shug'ullanadigan alohida tuzilma va unga mas'ul o'rinbosar shtati tashkil qilindi. Yirik korxonalarining har biriga xodimlar birlashtirilgan, aniq mezonlarga asoslangan, inson omilisiz ishlaydigan KPI tizimi joriy etilishi boshlandi. Buning uchun, "Yirik soliq to'lovchilar ma'murchiligi" dasturiy mahsuloti 2024-yil 1-oktyabrga qadar to'liq ishga tushiriladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

II. Yirik soliq to'lovchilar inspeksiyasida soliq ma'murchiligi samaradorligini yaxshilash hamda yangicha yondashuv mexanizmlarini ishlab chiqish yuzasidan quyidagilar taklif etiladi.

1. Ijobiy sinovdan o'tgan xalqaro tajribaga asoslangan holda 2025-yil 1-yanvardan boshlab bosqichma-bosqich O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining

169-moddasi talablari asosida soliq monitoringi instrumentidan yirik soliq to'lovchilar faoliyatida keng foydalanish. Bunda soliq monitoringiga tushgan yirik soliq to'lovchilarda soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi. Ma'lumot uchun: Deyarli barcha davlatlarda soliq monitoringi yirik soliq to'lovchilarda amalga oshiriladi. Soliq monitoringi jarayonida soliq to'lovchi tomonidan ixtiyoriy ravishda soliq organlariga faoliyati to'g'risidagi barcha ma'lumotlar beriladi va soliq organlari tomonidan soliq to'lovchining faoliyati kunlik monitoring qilib boriladi. Dastlabki bosqichda 14 ta yirik korxonalarda soliq monitoringi olib boriladi va keyinchalik ularning soni bosqichma-bosqich oshiriladi. 2025-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan soliq monitoringiga kiradigan korxonalarining 1-S buxgalteriya dasturlari soliq bazasiga integratsiya qilinadi.

2. Yirik soliq to'lovchilar tomonidan elektron hisobvaraqlar fakturalarda mahsulotlar narxini sun'iy ravishda pasaytirib ko'rsatish orqali soliq bazasini yashirish holatlarining oldini olish maqsadida 2024-yil 1-sentyabrdan soliq bazasini haqiqatda realizatsiya qilingan bozor narxidan kelib chiqib hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish (Davlat budjeti yiliga kamida 1-2 trln so'm yo'qotmoqda). Misol uchun, "Yuksal jeneral" MCHJ tomonidan import qilingan "SAMSUNG," rsumli 2,6 ming dona kir yuvish mashinasi haqiqatda 3 mln so'mdan sotilgan bo'lib, elektron hisobvaraqlar fakturalarda 0,5 mln so'mdan realizatsiya qilingani soliq hisobotida ko'rsatilgan. Natijada soliq bazasi 5,2 mlrd so'mga kamaytirilib, budjetga 790 mln so'm to'lanmasdan qolgan. Birgina shu korxonadan 26 turdagi maishiy texnikalar realizatsiyasida narxlar pasaytirib ko'rsatilishi hisobiga davlat budjetiga 53 mlrd so'm soliqlar to'lanmay qolgan. Ma'lumot uchun: Soliq kodeksining 248-moddasiga asosan soliq organlariga bozor narxidan kelib chiqib soliq bazasini aniqlash huquqi berilgan bo'lib, Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan bozor narxini aniqlashning aniq tartibi va mezonlarini belgilab olish tavsiya qilinmoqda. Hozirgi bosqichda faqat yirik soliq to'lovchilarga nisbatan ushbu instrumentdan foydalanish nazarda tutilmoqda.

3. Xalqaro valyuta jamg'armasi tavsiyalaridan kelib chiqib, yirik soliq to'lovchilar orasida soliq to'lamaslik xavfi yuqori, barqarorlik reytingi past bo'lgan korxonalarda oldindan ularni xabardor qilmasdan mavzuli soliq nazorati (sayyor va soliq auditi) tadbirlarini o'tkazish. Bunday tadbirlar Soliq kodeksi talablari asosida yo'lga qo'yiladi (Germaniya, Turkiya, Xitoy, Rossiya tajribasi). Ma'lumot uchun: Amaldagi Soliq kodeksida sayyor soliq tekshiruvlarni o'tkazishda korxonalarni xabardor qilish ko'zda tutilmagan. Shuningdek, Soliq kodeksining 140-moddasiga asosan soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlari aniqlanganda korxonani xabardor qilmasdan soliq auditi o'tkazishga haqli. Biroq, 2022-yil 19-sentyabrdagi 374-sonli Prezident qaroriga asosan kameral va sayyor tekshiruvlari o'tkazishda korxonani 10 ish kuni oldin hamda soliq auditi bo'yicha kamida 30 kun oldin xabardor qilish belgilangan.

4. Iqtisodiyot va moliya vazirligi (X.Mustafayev), Soliq qo'mitasi (M.Mirzayev) bilan hamkorlikda tuzilgan ishchi guruh tomonidan yirik korxonalarda tannarx shakllanishi va xarajatlar tarkibini chuqur o'rgangan holda bevosita korxonalariga chiqib har oyda tahliliy ma'lumotlar Vazirlar Mahkamasi muhokamasiga kiritib boriladi. Bunda elektr energiyasi, yoqilg'i moylash hamda asosiy xom ashyo materiallari narxlarining o'zgarishi, davr xarajatlarini sun'iy oshirish hamda transfert narxlarini qo'llash hisobiga asossiz soliq nafi olish kabi holatlarning oldini olish ta'minlanadi. Shuningdek, samarasiz va foiz ko'rinishidagi xarajatlarni oshirishga xizmat qiladigan omillarni tahlil qilish, energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish hamda korxonalar faoliyatini sog'lomlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilab olindi.

5. Davlat ulushi mavjud korxonalar tomonidan 2023-yil yakuni bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan 5,9 trln so'm dividendning joriy yil 1 avgust holatiga undirilmasdan qolgan 3 trln so'mini budjetga to'liq to'lanishi ta'minlanadi. Bundan tashqari, 2023-yil yakuni bilan davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat banklarining ustav jamg'armasini oshirish uchun qoldirilgan 3,1 trln so'mlik dividend to'lovlari budjet daromadlari va xarajatlarida aks ettiriladi. Ma'lumot uchun: 2022–2023-yillarda davlat ulushi bor bo'lgan banklar sof foydasi 5,6 trln so'mni tashkil etib, shundan 3,9 trln so'm dividend to'lashi lozim bo'lgan mablag'lardan 243 mlrd so'mi budjetga to'langan hamda 581 mlrd so'mi ustav jamg'armasiga yo'naltirilgan. Joriy yil 1-avgust holatiga taqsimlanmagan mablag'lar 3,1 trln so'mni tashkil etmoqda.

6. Korrupsion holatlar hamda malakali kadrlar qo'nimsizligining oldini olish va xizmat vazifasini sidqidildan bajaradigan xodimlarni rag'batlantirish maqsadida yirik soliq to'lovchilarda o'tkaziladigan soliq nazorati tadbirlari natijasida qo'shimcha undirilgan soliqlarga hisoblangan jarima va penya summasining 40 foizini soliq organlarining maxsus jamg'armasiga o'tkazish taklif etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Федоров Андрей Николаевич. Налоговое администрирование и стимулирование инвестиционной активности крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Нижний Новгород 2010.
2. Кенэ Избранные экономические произведения.-М.Соцэкгз. 1960; Дж.М.Кейнс Общая теория занятости, процента и денег. – М.: 1993.
3. Камалнев Тимур Шамильевич. Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва 2009.
4. И.А.Майбуров Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по специальностям; под ред. И.А.Майбурова. –М.: юнити-дана, 2007. –655 с.).
5. Юнак Алексей Алевтинович. Проблемы правового регулирования налогового контроля и учета крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат юридических наук. Москва 2009. с.12.
6. Н.М.Дементьева. налоговая политика государства. [https://nsuem.ru/science/publications/science\\_notes/issue.php?ELEMENT\\_ID=1689](https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689).
7. Карп М.В Налоговый менеджмент: Учебник для вузов. – М.: Юнити-дана, 2001.– 39 с.
8. Ситникова Ольга Владимировна. Совершенствование налогообложения крупнейших консолидированных налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва 2012.
9. Дарькина Ю.А. Особенности налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. Interactive science. 3 (37). 2019.
10. Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

